

**МАКТАБДА ТАСВИРИЙ САН'АТ ФАНИНИ О'ҚИТИШДА
О'ҚИТУВЧИГА ХОС XУСУСИYАТЛАР**

Yusufboyeva Shoxnozabonu Quvondiq qizi

*UrDPI Filologiya va san'at fakulteti Tasviriy san'at
va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: maqolada maktabda tasviriy san'at fanini o'qitishda fan o'qituvchisiga xos fazilatlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlari: ma'ruza darsi, amaliy mashg'ulot darsi, qalamtasvir, qog'oz, bo'yoq, illustratsiya.

Maktablarda tasviriy san'at fanini o'qitish darslarida fanning nazariyasi va o'qitish usullari, shuningdek tasviriy san'at asoslari hamda uning tarixi masalalariga aloxida e'tibor berilgan. "Tasviriy san'at" darsliklarida ketma-ketlik bosqichlar asosida tasvirlar chizish, mustaqil ravishda tasviriy va amaliy mavzularga kompozitsiyalar ishlash, loy va plastilindan har xil narsalarning haykalchalarini yasash, rangli va rangsiz qog'ozlardan qirqib yasash, rang xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish, tasviriy san'at tarixi asoslarini o'rghanishga oid materiallarni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarga ta'lif berishning asosiy shakllari bu ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil tayyorlanish kabi dars turlaridan iborat bo'lib ketma ket amalga oshirilib borildi. O'quvchilar ma'ruza darslarida tasviriy san'at fanining maqsad va vazifalari, nazariy asoslarini, metodlari va tizimini, tarixiy rivojlanishini o'rghanadilar, namunaviy dasturlar bilan tanishadilar.

Amaliy mashg'ulot darslarida esa o'quvchilar rejaga muvofiq mavzuli-illyustrativ rejalar, dars turlariga ko'chirmalar tuzadi va ularga didaktik materiallar tayyorlaydi hamda badiiy bezak san'atini va grafikasini, amaliy bezak ishlari, haykaltaroshlikning didaktik materiallari bilan shug'ullanish kabilar nazarda tutilgan.

To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilar qalam orqali tasvirlashning oddiy asoslaridan boshlab murakkab narsalarni tasvirlashgacha bo'lgan chuqur bilim va amaliy malakalarni o'zlashtiradi, rangtasvir va kompozitsiyalar bo'yicha rang bilan ishlash xususiyatlarini aniq va nozik fahmlab amalda bajarishni, badiiy asarlarga badiiy bezak ishlov berishni o'rghanadilar.

Rasm chizuvchining ko‘ra olish qobiliyatini sistemali va maqsadga muvofiq ravishda o‘sirib borish natijasida u shakl va bo‘yoqlarning hamma xususiyatlarini aniq va nozik fahmlab, hayotdagi eng qiziqarli voqea laxzalarini sezib oladigan bo‘ladi.

Rasm chizish o‘rganilishi lozim bo‘lgan narsalarning rasmini naturadan mexanik ravishda ko‘chirib olish asosiga emas, balki real borliqni tushungan holda tasvirlash asosiga qurilish kerak. Rasm chizishning dastlabki davridanoq o‘quvchilar tasvirdagi eng muhim tomonlarni ajrata bilishni o‘rganib olishi zarur.

Har qanday o‘quv jarayoni singari tasviriy san’at darslarining asosida ham o‘quvchilarni yuqori g‘oyaviy ruhda tarbiyalash, ularga san’atdagi xalqchillikning rolini tushintirish yotadi. Bu vazifalar rasm chizish mashg‘ulotlarining har bir turida amalga oshiriladi.

O‘qituvchining kasbiy xususiyatlari borasida to‘xtalganda shuni ta’kidlash lozimki, u eng avvalo o‘z kasbining jonkuyari, dildan sevadigan, o‘z ishiga ijodiy va ilmiy yondoshadigan shaxs bo‘lmog‘i talab etiladi. Bu shaxsda yangi bilimlar va ilg‘or tajribalarga chanqoqliq muhimi unda tashkilotchilik, kuzatuvchanlik qat’iylik va insoniylik xususiyatlari yaqqol sezilib turishi lozim. O‘qituvchi tasviriy san’atdan maxsus bilim va malakalar bilan qurollanmasdan turib muallimlikni bajara olmaydi yoki o‘quvchi yoshlarga tabiat go‘zalligini, ona Vatanimizning tarixini, milliy merosimizning tarixini ta’riflab bera olmaydi, hamda o‘z kasbiga qiziqtira olmaydi.

Bugungi davr o‘qituvchisidan o‘zbek xalqining hamda o‘tmish bor bo‘lgan Markaziy Osiyo xalqlarining amaliy va tasviriy san’at borasidagi noyob namunalarini o‘zlashtirgan bo‘lishi va to‘laligicha o‘quvchi yoshlarga ularshmog‘i ayni davr talabidir. Fan o‘qituvchisiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- O‘zlari ta’lim berishi lozim bo‘lgan o‘smir va yoshlarga san’at sirlarini, uning meros namunalarini har tomonlama o‘rgatish;
- Ayni yangilanish, rivojlanish davri yosh avlodni bilimdon, yaratuvchan, yuksak madaniyatli va mustaqil mamlakat taqdiri uchun mas’ul shaxslar qilib tarbiyalash;

- Ulug'vor bunyodkorlik ishida malakali, g'ayratli o'qituvchi yoshlar peshqadamlilik qilmoqlari uchun zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash;
- O'quvchi va yoshlarni tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha ijodkorlikka yetaklash, layoqat sezilganda esa astoydil o'rgatish uchun maxsus mакtab yoki to'garaklarga jalb etish;
- O'quvchi va yoshlarga nafis san'at sirlarini o'rgatish borasida o'z ustida doimo izlanish, o'quvchi va yoshlar faoliyatini rivojlantirish, turli va asosli shakllantirish uchun pedagog kadrlar asosida tajribalar olib borish;
- Turli davr, turli xalqlarga mansub tasviriy san'at asarlarini mushoxada qila olmog'i va uning tushunish sirlarini yoshlarga ulashish-uslublariga ega bo'lish;
- Tasviriy san'at insonni shakllantirishdagi muhim va ishonchli vositalardandir, bundam imkoniyatni xar bir mashg'ulotda kullash uchun yamgicha uslub va mumkin bo'lgan usullarni ishga solish xmdmdz amalda qo'llay olish maxoratini o'rganish;
- Zamon talabi bilan davr va mashg'ulotlarni noan'anaviy davr rejalarini bilan o'tkazish;
- Zamonaviy texnika vositalardan unumli foydalanib davr samaradorligini oshirish;
- Jahon andozalariga xos yangi texnologiyalarni o'rganib, darsda qo'llay olish mahoratini egallashi kerak.

Yuqorida zikr etilgan talablarni o'zida mujassam etgan har qanday o'quvchiga keljak avlodimizni ishonib topshirsak bo'ladi. Tasviriy san'at muallimi - ilmiy izlanuvchan, ijodkor. Rassom - o'qituvchi qayerda, qanday o'quv maskanida ta'lim jarayonini ochib berishdan qat'iy nazar pedagogik faoliyatini ijodiy izlanishlar bilan boyitib borsa, shundagina yaxshi shogirdlar, haqiqiy rassomlarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining o'z sohasidagi savodxonligi yetarli darajada bo'lsagina o'quvchilar bilan yonma-yon o'tirib o'zlari amaliy namuna ko'rsata oladilar. O'shangagina o'quvchilar o'z ko'zlari bilan murabbiy rassomning egallagan mahorat sirlarini amaliy ishlarida ko'rib ruhan his qiladi

hamda san'atning nozik sirlarini tushunib yetishishiga imkoniyatlari kengayadi. Har bir rasmni ishlanayotgan narsa va buyumlarning tasvirlanish yo‘l-yo‘riqlarini professionallik darajasida ko‘rsatishga erisha olgan o‘qituvchi, o‘quvchilar qalbidan alohida o‘rin topa oladi. Ustozning dastgohi eng ishonchli va namunali vosita, undan yoshlar ishonch bilan andoza olishadi.

Tasviriy sanat o‘qituvchisining ma’naviy qiyofasi uning ijodiy izlanishlari, u yaratgan nafis, go‘zal asarlari o‘qituvchi va yoshlarda Vatanga, san’atga, hayotga chin muhabbatini uyg‘otmog‘i lozim.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san’at o‘qituvchisining faoliyati ezgulikka boshlovchi yo‘ldir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Majidov J. Rajabov R. Maktabda tasviriy san'at ta'limi samaradorligini oshirishning didaktik asoslari. Toshkent 1990-yil.
2. Oripov B. Tasviriy san'at darsini samaradorligini oshirish yo‘llari. Toshkent 1983-yil
3. Xasanov R.X. Maktablarda tasviriy san'at mashqulotlarini takomillashtirish yo‘llari. Toshkent 1981-yil.